MUSTAFO KAMOL OTATURK-TURKIYA RESPUBLIKASINING ASOSCHISI

Yusupova Iqbol Bahodirovna
Navoiy davlat universiteti Tarix kafedrasi o'qituvchisi
yusupovaiqbol@580gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.24028765

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi Turkiya Respublikasining asoschisi, Turkiyaning I jahon urushidan so'ng Turkiya mustaqilligi uchun olib borilgan kurashlarining asosiy rahnamosi va yetakchisi Mustafo Kamol Otaturkning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Mustafo Kamol Otaturk Turkiya Respublikasiga asos solar ekan o'z oldiga zamonaviy, progressiv tamoyillarga tayangan dunyoviy va milliy davlatni barpo etish vazifalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Turkiya, Mustafo Kamol Otaturk, Gretsiya, Salonika shahri, Ali Rizo afandi, Zubaydexonim, "Bolqon urush"lari, "Yosh turklar", "Ittihod" partiyasi".

Mustafo Kamol 1881-yil 13-martda Yunonistonning Salonika shahrida turk oilasida dunyoga keldi. Mustafo Kamolning dunyoga kelishi bilan bog'liq sana va oy kunida boshqa fikr va qarashlar ham bor. Turk tarixchisi Nejdet Sakoglu 1881-yil 13- martni qayd etgan. Shevket Surayyo Aymir Mustafo Kamol 1879-yil,4 -yanvarda tug'ilgan deb ma'lumot bergan. Singlisi Makbul: "Akam 1881-yil 23-dekbar kechqurun bo'ronli tunda tavallud topgan",- degan.Mustafo Kamol tug'ilgan yili bilan bog'liq 1879-yil 4-yanvar,1881-yil 23-dekabr,1881-yil 13-mart sanalari qayd etilar ekan, 1881-yil 19-may kunini tug'ilgan yil va kun sifatida taklif etgan. Chunki Turkiyada mustaqillik uchun kurash 1918-yil 29-mayda boshlangan.Mustafo Kamol "men mustaqillik uchun kurash bilan boshlangan kun farzandiman,-degan suhbatda[1,198].

Salonika Mustafo tavallud topishidan biroz oldinroq Usmoniy saltanati hududiga kiritilgan edi. Shuning uchun bu inson haqida Yunonistonda tavallud topib, o'z hayoti va faoliyatini Turkiyaga baxshida etdi, deb hisoblashadi. Mustafo Kamolning otasi Ali Rizo Afandi va onasi Fayzulla oqa qizi Zubaydexonimdir.Otasi tijoratchi yoxud o'rmon mahsulotlari bilan savdo qilgan, keyinchalik bojxona xodimi bo'lgan. Onasi Zubaydexonim badavlat turk ayoli bo'lib,oqila ayol bo'lganligi uchun hayotda yashab qolgan 2 nafar (7 nafar farzandidan) farzandini Mustafo Kamol va singlisi Makbulni oqil va oqila qilib voyaga yetkazgan. Otasi Ali Rizabey (keyinchalik "Afandi",bu nomni qo'shib aytish turklarda hurmat ma'nosini ifodalaydi)haqida uning qonida slavyan, albanlarga avlodligi bor deb ham hisoblanadi.

Ali Riza Bey va Zubeydexonim 1871-yilda turmush qurgan va 1881-yilda Mustafo Kamol to'rtinchi farzand bo'lib, aka-ukalari Omer, Fatma, Ahmet va Najiyo yoshligida vafot etishgan, Mustafo Kamol va singlisi Makbum bilan hayotda yashab qolgan. Mustafo Kamol 7 yoshida otasidan ajraldi.1888-yilda amakasi Hasan afandi qaramog'iga o'tdi.

Mustafo Kamol dastlab litseyda (Salonika harbiy maktabi)da 1893-yildan boshlab tahsil ola boshlaydi. Matematika fanidan o'z tengdoshlaridan ancha ilgarilab ketdi. Matematikadan tahsil bergan o'qituvchisi, kapitan Mustafo Sabri Bey unga "Kamol"deb nom berdi. 14 yoshida "Kamol" nomini ogan Mustafo (bu nom "komil", "yetuk" ma'nolarini bildiradi). 1896-yilda Manastir harbiy maktabiga o'qishni davom ettirib, 1896-1899-yillarda makatbning tarix o'qituvchisi, podpolkovnik Mehmet Bey unga tarix

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

faniga nisbatan ulkan qiziqish uyg'ota olgan va msashg'ulotlarga ishtiyoq bilan shug'ullanishida muhim rol o'ynadi. Shuningdek, fransuz tili kurslariga qatnashib franzus tilini chuqur o'rgandi. 1899-yil 13-martda Istanbuldagi imperatorlik harbiy akademiyasiga o'qishga kirdi. 1902-yildan Bosh shtab akademiyasida o'qishni davom ettiri,1904-yilda bu o'quv dargohini kapitan harbiy unvoni bilan muvafaqqiyatli tugatdi[2,166]

Mustafo Kamol Bosh harbiy shtab akademiyasini tugatishi bilan 1905-yildan harbiy xizmatga olindi. U 1905-1907-yillarda Damashq (Suriya)da Lujori Mufit Bey qo'mondonligidan 5-armiyaning piyoda, otliq artilleriya bo'linmalarida xizmat qildi. Harbiy boshliq pillapoyalaridan tez ko'tarilgan Mustafo Kamol 1907-yil 20-iyunda Katta kapitan,1907-yil 13-oktyabrda 3-armiyaning shtab zobiti lavozimini egalladi. U tuzgan "Vatan va ozodlik" jamiyati Turkiyadagi ta'sirchan "Ittifoq va taraqqiyot" qo'mitasi tarkibiga kirdi,Shu tufayli Mustafo Kamol ham Turkiston tarixi,taqdiri masalalari bilan jiddiy qiziqa boshlagan edi.1908-1909-yillarda parlamentchilik harakatini boshlagan "Yosh turklar" tashkilotiga ham Mustafo Kamol qiziqish bildirdi.

Konstitutsiyaviy hukumat uchun kurash boshlagan progressiv turk ziyolilari va zobitlarining chiqishlari Mustafo Kamol ongiga o'z ta'sirini o'tkazdi. U o'z harbiylari bilan Abdulhamid II (1876-1909 yy) "zulm" rejimini ag'darish uchun 1909-yil 19-aprelda brigada generali Mahmud Shevket posho qo'shinlari tarkibida Istanbulga kirdi.Keyinchalik "Yosh turklar" hukumati yillarida 3-armiya shtab boshlig'i, 3 –armiya zobitlarini tayyorlash maktabi qo'mondoni, 5-korpus shtab boshlig'i, 38-piyoda polkinining qo'mondoni lavozimlarida faoliyat yuritdi.

Mustafo Kamol 1911-yil 27-sentyabrda Istanbul Bosh shtab boshqaruvi a'zosi bo'ldi. 1911-1912-yillarda "Yosh turklar" harakatida faol bo'lgan mayyorlar Anvar Bey va Fethi kabilar bilan hammaslak bo'ldi. Usmoniylar saltanati ta'sirida bo'lgan Tiopoliga Italiya 1911-yilda xavf soldi. Yuqorida ism-shariflari zikr qilingan zobitlar qatorida o'zi imzolagan veksellar hisobidan 200 funt sterlin olib Tripoliga yo'l oldi. Biroq, 1911-yilning kuz va qish oylarida Italiyaning qo'li baland kelib, Usmonli saltanati Tripolidan voz kechishga majbur qilindi.

Mustafo Kamol 1911-1912, 1912-1913-yillarda I va II Bolqon urushlarida ishtirok etdi. Bolqon urushlaridan so'ng 1913-yil 27-oktyabrda uni Sofiya (Bolgariya) harbiy attashé (bu bir davlatning mudofaa vazirligi yoki qurolli kuchlari tomonidan boshqa davlatdagi elchixonaga tayinlanadigan rasmiy harbiy vakil) etib tayinlashdi. U Bolgariyada attashe bo'lib turganida 1914-yil 1 martda podpolkovnik harbiy unvonini oldi. Mustafo Kamolning Birinchi jahon urushi yillarida harbiy unvoni oshib,1916-yil 1-aprelda general, ko'p o'tmay Diyorbakrda posho unvonlariga sazovor bo'ldi.

1933-yil Turkiya Respublikasi 10 yilligi munosabati bilan "Sharaf lojasi" ayvonida turib so'zlagan nutqida: "Ulug' maqsadga erishishimizga shubha yo'qdur, chunki turk millari mehnatsevar, zakovatli millatdir. Chunki turk millati o'zini kuchi milliy birlikda ekanini biladi va chunki turk millatining iqtisodi, madaniyati yo'lida, uning qo'lida va qalbida yongan mash'ala ilm-u-ma'rifatdur", - degan shiorlarni bildirgan edi [3, 47].

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, Mustafo Kamol Otaturkning harbiy va davlatchilik merosi nafaqat Turkiya Respublikasi tarixini, balki butun Yaqin Sharq va Sharq olamidagi milliy-ozodlik harakatlari hamda modernizatsiya jarayonlarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynadi. U yaratgan respublika modeli va davlatchilik tamoyillari bugungi kunda ham Turkiyaning xalqaro maydondagi o'rni hamda suverenitetining eng mustahkam ustuni bo'lib xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

1. Xayitov. Sh. A. Biz bilmagan Turkiya: Anqara va Konyada besh kun.
2. Turk xalqining buyuk farzandi Mustafo Kamol Otaturk(to'plam). Toshkent. 1998-b-47.
3. Жамолова Д. Туркистон ва Шарқ мамлакатлари тараққийпарварларининг ўзаро алоқалари (XIXаср охири-XX асрнинг биринчи чораги)-Тошкент. Фан-2013 йил. -240 бет. (Б.166-189).
4. 2.Cag'atay Kocar. Atayurttan anayurda Turkistanlilar. Adana-2009.-198s. (S.32-48)

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.